

**HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILIDA FE'L SO'Z TURKUMINI MAKTAB  
FAOLIYATIDA QO'LLASHNING MEZONLARI**

*Andijon davlat pedagogika instituti  
Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi  
2-kurs talabasi  
Alijonova Gulxumor*

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada fe'l so'z turkumi haqida ma'lumot, uning maktab faoliyatida qo'llanish mezonlari, hozirgi o'zbek adabiy tilida fe'l so'z turkumining ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** fe'l so'z turkumi, fe'lning vazifadosh shakllari, zamonlar, so'z yasalishi, fe'l darajalari.

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье представлена информация о глагольном словосочетании, критериях его использования в школьной деятельности, а также о значении глагольного словосочетания в современном узбекском литературном языке.

**Ключевые слова:** глагольная группа слов, функциональные формы глагола, времена, словообразование, глагольные уровни.

**ANNOTATION:** This article provides information about the verb phrase, the criteria for its use in school activities, and the importance of the verb phrase in the modern Uzbek literary language.

**Key words:** verb word group, functional forms of the verb, tenses, word formation, verb levels.

**Kirish.** Hozirgi o'zbek adabiy tili o'zbek milliy tilining oliy formasi — ishlov berilgan. me'yorlashtirilgan, millat vakillarining barchasi uchun umumiy bo'lgan barqaror shaklidir. Demak, u milliy tilga zid qo'yilmaydi, undan boshqa tizim ham emas, balki shu milliy tilning yuqoriroq bosqichi. tartibga solingan bosh ko'rinishi. xolos.

Til – insonlar orasidagi aloqa vositasi, jamiyat a'zolarining fikrni ifodalashi va o'zaro fikr almashishi uchun xizmat qiladigan vosita. Til o'ziga xos tarixiy taraqqiyot tizimiga, murakkab strukturasi ega. A. Rahimov Beryozinning quyidagi fikrlarini keltirgan “Til sistema sifatida aynan matematikaning o'zidir. Matematika aniq fan bo'lib, formulalar munosabati orqali reallashadi. Til ham matematika singari aniqlikni talab qiladi va unda ikki yoki undan ortiq elementlarning o'zaro munosabati bir butunlikni tashkil etadi” [Xolmanova, 2020, 12].

Til [odam miyasining](#) turli, xususan [Broca](#) va [Wernicke sohalarida](#) ishlanadi. Odamlar tilni yosh bolalik paytidagi ijtimoiy o'zaro munosabat

orqali o'zlashtiradilar va o'rtacha uch yoshga kelib ravon gapira oladilar. Til ishlatish odam madaniyatiga chuqur singgan. Binobarin, til faqatgina muloqot vositasi bo'lib qolmay, balki individuallik, ijtimoiy stratifikatsiya, parvarish va ermak kabi ijtimoiy va madaniy rollarga ham ega.

Fe'l — harakat bildiruvchi so'zlar turkumi va shu turkumga oid har bir so'z. Grammatikada "harakat" so'zi keng tushunchali bo'lib, nafaqat harakatni, balki holat yoki hodisani ham bildiradi, masalan: yugurmoq, sakramoq, yig'lamoq, uxlamoq, o'ylamoq, sevmoq, tinchimoq, qurimoq.

Fe'llar lug'aviy ma'noga ega yoki ega emasligiga ko'ra 2 turga bo'linadi: mustaqil fe'llar, yordamchi fe'llar. Mustaqil fe'llar, xuddi boshqa mustaqil so'z turkumlariga oid so'zlar kabi, lug'aviy ma'noga ega bo'ladi, gapning mustaqil bo'lagi vazifasida kela oladi va h.k. Yordamchi fe'llar lug'aviy ma'noga ega bo'lmaydi. Ular turli yordamchi vazifalarda kelib, turli qo'shimcha ma'nolar ifodalash uchun xizmat qiladi. Yordamchi fe'llar o'z vazifasiga ko'ra 3 asosiy turga bo'linadi: 1) fe'l yasash uchun xizmat qiluvchi yordamchi fe'llar: qil, et, ayla, bo'l (qabul qilmoq, taklif etmoq, tamom bo'lmoq kabi); 2) fe'lning analitik shaklini yasash uchun xizmat qiluvchi yordamchi fe'llar (bular, odatda, "ko'makchi fe'llar" deb yuritiladi). Fe'lning bunday shakllari turli grammatik, modal va boshqa ma'nolarni ifodalaydi: o'qib bo'ldi, ko'rib qoldi, qo'rqib ketdi va boshqa; 3) bog'lama vazifasini bajaruvchi yordamchi fe'llar. Masalan, qil, bo'l: sportchi bo'lmoq, o'qituvchi bo'lmoq.

Zamon kategoriyasi — harakatning nutq paytiga munosabatini bildiruvchi grammatik kategoriya. Harakatning nutq paytiga munosabatiga ko'ra Fe'lning 3 zamon turi farqlanadi: o'tgan zamon — keldi, oldim; hozirgi zamon — kelyapman, kelyapti; kelasi zamon — kelaman, olasan va boshqalar.

Shaxs-son kategoriyasi — harakatning 3 shaxs (so'zlovchi, tinglovchi, o'zga)dan biriga oidligi ma'nosini bildiruvchi grammatik turkum: keldim (birinchi shaxs, birlik), keldik (birinchi shaxs, ko'plik), kelding (ikkinchi shaxs, birlik), keldingiz (ikkinchi shaxs ko'plik).

Maktabda fe'l so'z turkumini o'tishda interfaol metodlardan ham foydalanib dars tashkil qilsak, o'quvchilarga yanada tushuntirish oson kechadi. Prezidentimiz "Maktab o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarurligi" hamda "Oliy ta'lim standartlari xorijiy tajriba asosida takomillashtirilishi, ta'lim yo'nalishlari va o'qitiladigan fanlar qayta ko'rib chiqilishi zarurligi" to'g'risidagi aniq vazifalarni belgilab bergan edi.

**Xulosa.** Hozirgi o'zbek adabiy tilida fe'l so'z turkumini maktab faoliyatida qo'llashning mezonlarini ko'rib chiqdik. Albatta bu uchinchi renessans davri uchun naf keltiradi. Bu mezonlar orqali maktablarda fe'l so'z turkumini yanada oson yo'llar orqali tushuntirish mumkin. Rivojlanayotgan O'zbekiston uchun ham bilimli yosh avlodlar safi kengayadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Umumiy filologiyaning dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy – amaliy konferensiya materiallari. Andijon. 2023-yil, 14-iyun.
2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent, 2006. 4. Sodiqova M. Hozirgi o‘zbek tilida sifat. – Toshkent, 1974.
3. Yuldashev J. Yangi pedagogik texnologiya: yo‘nalishlari, muammolari, yechimlari. Xalq ta’limi, 1999-yil, 4-son, 4-11-betlar.
4. forum.oyina.uz
5. Hasanxon Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, Toshkent-2005.